

**AVTOMOBIL YO'LLARIDAGI YO'L JIHOZLARINI, AJRATUVCHI TO'SIQLARNI
SAQLASH ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA SAQLASH ISHLARIDA
INNOVATSION TEHNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

**EFFECTIVE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGY IN THE WORK OF
IMPROVING AND MAINTAINING ROAD EQUIPMENT ON HIGHWAYS, DIVIDING
BARRIERS**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАБОТ ПО ОБСЛУЖИВАНИЮ ДОРОЖНОГО
ОБОРУДОВАНИЯ, РАЗДЕЛИТЕЛЬНЫХ ОГРАЖДЕНИЙ НА АВТОМОБИЛЬНЫХ
ДОРОГАХ И ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В РАБОТАХ ПО ХРАНЕНИЮ**

Mahmudov Sanjarbek Toxirjon o'g'li

Namangan muhandislik-qurilish instituti

“Yo'l harakati xavfsizligi va muhandisligi” kafedrasи

stajyor-o'qituvchisi

(+998999774742 msanjarbek1003@gmail.com)

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda avtomobil yo'llaridagi, yo'l jihozlarini saqlash va ta'mirlash ishlarida zamonaviy tehnologiyalardan samarali foydalanish, asosan saqlash ishlarida inson(omili), kuchidan foydalanish darajasini kamaytirish, yo'l jihozlarini transport vositalari harakatiga ta'sirini yanada optimallashtirish bayon qilingan. Qolaversa saqlash ishlarida innovatsion zamonaviy tehnologiyalardan foydalanishni ko'paytirish to'g'risida yoritib o'tilgan.

Annotation. This article describes the effective use of modern Technologies in highway maintenance and repair work, mainly human(factor) in maintenance work, reducing the degree of foiling from strength, further optimizing the impact of road equipment on vehicle traffic. In addition, it has been highlighted about increasing the use of innovative modern technology in storage work.

Аннотация. В данной статье описывается эффективное использование современных технологий в настоящее время на автомобильных дорогах, в работах по техническому обслуживанию и ремонту дорожного оборудования, главным образом в работах по сохранению человеческого фактора, снижение уровня использования мощности, дальнейшая оптимизация воздействия дорожного оборудования на движение транспортных средств. Кроме того, было освещено увеличение использования


инновационных современных технологий в хранилищах.

Kalit so‘zlar. Yo‘l jihozlari, yo‘l to‘sqliari, yo‘l belgilari, saqlash ishlari, tehnologiyalar, ta’mirlash, inson kuchi, transport harakati, ko‘rinishlik masofasi, innovatsion tehnologiya, transport hodisasi.

Keywords. Road equipment, roadblocks, road signs, maintenance works, Technologies, maintenance, human power, traffic, visibility distance, innovative technology, traffic accident.

Ключевые слова. Дорожное оборудование, дорожные заграждения, дорожные знаки, складские работы, технологии, Ремонт, человеческая сила, Движение, расстояние видимости, инновационная технология, транспортное происшествие.


Kirish. avtomobil yo‘li–transport vositalari harakatlanishi uchun mo‘ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og‘irlilikda, o‘lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta’minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasi, shuningdek ushbu majmuani joylashtirish uchun berilgan yer uchastkalari va majmua ustidagi belgilangan doiradagi bo‘shliq. Avtomobil yo‘llarida yo‘l to‘sqliari transport vositalarini, piyodalar harakatini tartibga solish va yo‘l transport hodisalarini oldini olish hamda ularni og‘irlilik darajasini pasaytirish uchun o‘rnataladi. Yo‘l to‘sqliariga qo‘yiladigan talablar **GOST 26804-86** da keltirilgan. Yo‘l sharoitini o‘zgarishiga qarab yo‘l to‘sqliarini qanday vaqtarda ishlatish shartlari **GOST 23457-86** da keltirilgan. Yo‘l to‘sqliarini qo‘llash shartlariga qarab **2 guruuhga bo‘linadi**.



1-rasm. 1-guruh yo‘l to‘sqliari.

Birinchi guruh yo‘l to‘sqliari I-IV darajali Avtomobil yo‘llarida yo‘l yoqasida qo‘yidagi hollarda o‘rnataladi: Yo‘l poyi ko‘tarmada o‘tib, uni yon qiyaligi 1:3 va undan tik bo‘lsa. Temir yo‘l izlariga, botqoqliklarga, kanallarga (suvning chuqurligi 2 m va undan ko‘p bo‘lsa), jarlarga va tog‘ daralariga oraliq masofa yo‘lni qatnov qismini chetidan 25 m va undan kam bo‘lmagan hollarda, yo‘l parallel o‘tgan joylarda. har xil sathda kesishgan murakkab chorrahalarda. Rejada yo‘lni yo‘nalishi o‘zgarib ko‘rinish ta’milanmagan uchastkalarda. Ajratish tasmalarida, ko‘priklarda, yo‘l o‘tkazgichlarda, estakadalarda. Birinchi guruh yo‘l to‘sqliari yo‘l yoqasida, yo‘l poyini chetidan 0.5 m masofadan kam bo‘lmagan va 0.85 m ko‘p bo‘lmagan masofada yo‘l

to'sig'ini bikirligiga qarab joylashtiriladi.



2-rasm. 2-guruh yo'l to'siqlarini qo'llash.

Xavfsizlik talablariga ko'proq temir plankalardan yasalgan to'siqlar to'g'ri keladi. Ko'ndalang kesimi W ko'rinishida bo'ladigan plankalar qattiq konsolga mahkamlanadi, konsol esa №12 shvellerga biriktiriladi. Ustunlarining orasi 1 m, 2m, 3m va 4m bo'ladigan, bir tomonli yo'l to'siqlari konstruksiyasining (GOST 26804-86 bo'yicha) to'rt xili ishlab chiqilgan. Bu konstruksiyalarning ishlashi quyidagicha bo'ladi: Avtomobil to'siqli urilganda asosiy zarba plankaga tushadi, zarbaning bir qismi o'tgan ustun esa qiyshayadi.

Ushbu yo'l to'siqlari transport vositalarini harakatini yaxshilash uchun hizmat qiladi. Ko'p holatlarda transport hodisalarini oldini olishda, xavfsizlik maqsadlari uchun qo'llaniladi. Albatta transport oqimi ko'p bo'lgan yo'l bo'laklarda ularni xavfsiz harakatini ta'minlash muhim hisoblanadi. Yo'l to'siqlarini doimo soz holatda turishi, ulardag'i har bir detalni ko'rinishligini ta'minlashi haydovchiga yo'lni idrok etishda ko'makchi bo'ladi.

Yomg'irli, changli, qorli iqlim havosida ularni tozaligi saqlash ishlarida ko'plab qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Bu holatlar transport harakatida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa ko'plab yo'l to'siqlarida joylashtirilgan kichik nur qaytargichlarni holati yomonlashishi ya'ni, kirlanishi(loy, chang) bo'lishi harakatga salbiy ta'sir ko'rsatadi (3-4-rasmlar).




3-rasm. Yo‘l to‘sıqlarini ob-havo natijasida ko‘rinishini xiralashishi.



4-rasm. Yo‘l to‘sıqlarida joylashtirilgan kichik nur qaytargichlar.

Saqlash ishlarida yo‘l to‘sıqlarini changdan, loydan va qordan tozalashda ko‘p holatlarda inson kuchidan foydalaniladi. Ko‘p holatlarda yuqoridagi yo‘l to‘sıqlari katta-katta avtomagistrallarda o‘rnatalidi. Avtomagistrallani saqlash ishlari murakkab, chunki yo‘Ining ko‘p qismi aholi yashash hududi orqali emas balki, ulardan olisda o‘tadi. Bu esa saqlash ishlarida qaysidur km ni nazoratga olishda qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Transport hodisalari ko‘p holatlarda nosoz yo‘l jihozlari sababli sodir bo‘lishini hisobga oladigan bo‘lsak, yo‘l jihozlari, yo‘l belgilari doimo soz holatda bo‘lishi kerak.

Agarda yo‘l to‘sıqlarini saqlash ishlarida zamonaviy tehnologiyalardan foydalansa, ish hajmi ortadi yo‘l to‘sıqlarini nazorat qilish ham onsonlashadi.



5-rasm. Yo‘l to‘sıqlarini tozalovchi innovatsion tehnologiya.

Ushbu tehnologiya insonlar mehnatini yengillashtiradi va uzoq masafadagi hudularini ham tozalaydi. Boshqarishda boshqaruv xonasida biriktirilgan shaxs uni nazorat qiladi. Qulayligi inson mehnatini yengillashtirish va doimo nazorat qilishda qiyinchilik tug‘dirgan yo‘l

bo‘laklarini nazoratga olishda ko‘makchi bo‘ladi.

Xulosa. Ushbu tehnologiyadan foydalanish natijasida biz quyidagi qulaylik va yutuqqa erishamiz:

- yo‘l to‘sıqlarini doimo nazorati;
- yo‘l to‘sıqlarini doimo toza va soz holatda;
- ishchi kuchini kamaytirish, qo‘l mehnatini kamaytirish;
- saqlash jarayonida transport harakat oqimiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi;
- harajatni kamaytirish kabi ko‘plab natijalarga erishamiz.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мухаммаджонов А., Махмудов С. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭЛАСТИЧНОСТИ И ТЕМПЕРАТУРЫ РАЗМЯГЧЕНИЯ МАСТИКИ, ПРИМЕНЯЕМОЙ НА АВТОМОБИЛЬНЫХ ДОРОГАХ //Экономика и социум. – 2022. – №. 11-1 (102). – С. 776-780.
2. Махмудов С. Т. У., Мухаммадюсуп Э., Угли М. ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ-ДОРОЖНИКОВ //Механика и технология. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 187-194.
3. Toxirjon o‘g‘li M. S. AVTOMOBIL YO ‘LLARIDA TIRBANDLIKLARNI HOSIL BO ‘LISH SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISH CHORALARIAVTOMOBIL YO ‘LLARIDA TIRBANDLIKLARNI HOSIL BO ‘LISH SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISH CHORALARI: AVTOMOBIL YO ‘LLARIDA TIRBANDLIKLARNI HOSIL BO ‘LISH SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISH CHORALARIAVTOMOBIL YO ‘LLARIDA TIRBANDLIKLARNI HOSIL BO ‘LISH SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISH CHORALARI. – 2023.
4. Mahmudov S. AVTOMOBIL YO ‘LLARI CHORRAHALARIDA XAVFSIZ HARAKATNI TASHKIL ETISH: AVTOMOBIL YO ‘LLARI CHORRAHALARIDA XAVFSIZ HARAKATNI TASHKIL ETISH. – 2023.
5. O‘G‘Li M. S. T. et al. SHAHARLAR KO ‘CHA VA YO ‘LLARIDA YUZAGA KELAYOTGAN TIRBANDLIKLARNING SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING SAMARALI USULLARI //Строительство и образование. – 2023. – Т. 4. – №. 5-6. – С. 321-325.
6. Mahmudov S., Tolliboyeva M. QUMLI HUDULARDA AVTOMOBIL YO ‘LLARINI LOYIHALASHNING XUSUSIYATLARI: QUMLI HUDULARDA AVTOMOBIL YO ‘LLARINI LOYIHALASHNING XUSUSIYATLARI. – 2023.
7. Makhmudov S. T. ADVANTAGES OF THE WIDE USE OF GEOTEXTILE

MATERIALS IN THE CONSTRUCTION OF ROAD SURFACES //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-2 (109). – С. 260-263.

8. Mahmudov S. T. AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISHDA ATROF-MUXITNI KO'KALAMZORLASHTIRISH //Механика и технология. – 2021. – Т. 4. – №. 5. – С. 124-127.